AKSIOLOGIYA VA XUSHMUOMALALIK KATEGORIYASINING LINGVISTIK TADQIQI

Ashurxon Ismoilovna Matkarimova
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Maqolada aksiologiya, ya'ni qadriyatlar haqidagi fanning tilda qo'llanilishi haqida so'z boradi. Unda xushmuomalalik kategoriyasining aksiolingvistik xususiyatlarini tadqiq qilish maqsadida mavzuga doir ilmiy qarashlar tizimlashtirilib, ular nazariy tahlil qilindi. To'plangan faktik materiallar tahlili natijasida umumiy xulosalar qilindi.

Kalit so'zlar: aksiologiya, qadriyatlar falsafasi, tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, etnolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, xushmuomalalik kategoriyasi

AXIOLOGY AND LINGUISTIC RESEARCH OF THE CATEGORY OF POLITENESS

Ashurkhon Ismailovna Matkarimova
Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: The article discusses the application of axiology, the science of values, in language. It aims to investigate the axiological linguistic characteristics of politeness. In this regard, scientific perspectives on the topic are systematized and analyzed theoretically. Based on the analysis of the collected factual material, general conclusions are drawn.

Keywords: axiology, philosophy of values, linguistics, cognitive linguistics, pragmalinguistics, ethnolinguistics, linguistic cultural studies, category of politeness

Til makonidagi qadriyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish dunyo tilshunosligida tobora kuchayib bormoqda. Til va qadriyat o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish, aksiologiya va tilshunoslik kesishmasida, aksiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, etnolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik kabi tilshunoslikning yangi yo'nalishlarida ustuvor vazifa sifatida ko'rilmoqda.

Ma'lumki, aksiologiyani tilshunoslikdagi yo'nalishlar bilan bog'liqligi A.Ivin, N.Arutyunova, L.Bayramova, G.Bagautdinova, G.Gibatova, I.Sanayeva, Ye.Kuznetsova, V.Melnichuk, G'.Qambarov, Z.Pardayev, M.Raxmatova, R.Madjidova va G.Komilovalar tomonidan isbotlab berilgan [9;3;4;5;7;25; 16;17; 18;22;24;19;14].

(cc) BY

Tilshunoslikning muammoli sohalari kengayib, lingvistik bilimlarning chegaralari ochiqligi tufayli, tilshunoslik fanlari tilga falsafiy yondashuvni tobora ko'proq talab qilmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy dunyoda tilning serqirra tabiati fanlararo tadqiqotlarni talab qilmoqda. Buning natijasida aksiologiya va tilshunoslikning o‘zaro ta’siri yangi fan-aksiolingvistikaning paydo bo‘lishiga olib keldi va tilda aksiolingvistik tadqiqotlarni rivojlantirish imkoniyatini yaratdi.

Aksiologiya so‘zi etimologik jihatdan ilm-fan tiliga asos solgan qadimgi til an’analari ma’nosini anglatadi va kelib chiqishi qadimgi yunon tiliga borib taqaladi. *Aksiologiya* yunoncha ἀξιόλογος - qimmatli, ma’noli, ahamiyatli va λόγος - so‘z, tushuncha, atama, ma’no, o‘rgatish kabilarni bildiradi [26]. Falsafiy bilimlarning mustaqil ilmiy sohasi – qadriyatlar haqidagi falsafiy ta’limot uchun «aksiologiya» atamasi 1902-yilda faylasuf P.Lapi tomonidan ilmiy-falsafiy muloqotga kiritilgan [12], bu esa ushbu fanning rivojlanishiga turtki bergan.

Aksiologiya rivojiga hayot falsafasi (F.Nitsshe, V.Diltey, M.Sheler) va neokantchi falsafiy maktablar (Neokantchilik - 19-asrning oxirgi uchdan bir qismi - 20-asrning birinchi uchdan bir qismidagi idealistik falsafaning yo‘nalishi bo‘lib, u asosiy falsafiy muammolarni Kant ta'limotini bir tomonlama idealistik talqin qilish asosida xarakat qiluvchi maktab) (Baden va Magdeburg) vakillari katta hissa qo‘shdilar. Xususan, uning fundamental falsafiy asoslarini yaratgan G.Koen, E.Kassirer, V.Vindelband, G.Rikertlar va rus faylasuflarining (V.S.Solovyov, I.A.Ilyin, N.O.Losskiy) alohida hissasini e’tirof etish lozim [6].

Aksiologiya tushunchasi bu shaxs, jamoa, jamiyatning moddiy, madaniy, ma’naviy, axloqiy va psixologik qadriyatlari va ularning voqeliklar olami bilan aloqasi, qadriyatlarning me’yoriy tizimidagi o‘zgarishlar haqidagi falsafiy ta’limot, tarixiy rivojlanish jarayonini anglatadi [11]. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida aksiologiyaga quyidagicha ta’rif berilgan: “Aksiologiya - yun. *Axia - qimmat*, *qadr* va *logiya - fan,* ya’ni qadriyatlar to‘g‘risidagi fan” [27].

Aksiologiya fan sifatida o‘z kategoriyalarini XVIII asr oxirlaridan belgilab olgan bo‘lsa-da, tadqiqotchilar uning manbayi antik davr faylasuflari, jumladan, Suqrot asarlariga borib taqalishini ta’kidlaydilar. Suqrotning «*Ezgulik nima*?» degan savoli aksiologiya uchun asos bo‘lib qoldi. Keyinchalik bu fan XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrga kelib mustaqil fan sifatida shakllangan qadriyatlar falsafiy nazariyasiga suyandi [8]. Ta’lim nazariyasida rus tilshunoslaridan L.P.Razbegaeva, S.F.Anisimov, S.Pavlov shuningdek, E.A.Firsova [23;2;21;29] kabi bir qator olimlar qadriyatlar nazariyasi ustida izlanishlar olib bordilar.

Ilgari aksiologiya asosan statik yondashuvga asoslangan edi, u qadriyatlarning mohiyatini aniqlash, ularni turlarga ajratish, tizimlashtirish va tahlil qilish, “abadiy” qadriyatlar va qiymat mutlaqlarini tasdiqlash bilan shug‘ullangan [10].

(cc) BY

XX asrda tilshunoslikning rivojlanishi tilni o‘rganishda antropotsentrizm g‘oyasining ustuvor mavqeyini tan olishga va shu bilan bog‘liq holda inson faoliyatini uning tilida namoyon bo‘ladigan izlarini tadqiq qilishga olib keldi. Antropotsentrik lingvistik paradigma tilning faoliyat ko‘rsatish hamda so‘zlovchining aniq maqsadlariga muvofiq til birliklaridan foydalanish qonuniyatlarini aniqlash tomon siljishi bilan tavsiflandi. Chunki antropotsentrizm xalq hayoti, madaniyati, mentaliteti, ijtimoiy norma va urf-odatlarini o‘zida aks ettira oladigan muhim soha ekanligini to‘liq namoyon qildi. Bu sohada albatta, xushmuomalalik kategoriyasi o‘z ahamiyati bilan muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, xushmuomalalikni shaxsning muloqot va uni amalga oshirish me’yorlari haqidagi bilimlarini tartibga soluvchi, interaktivlarning kommunikativ xatti-harakatlarida amalga oshiriladigan va shaxslararo muloqotning samaradorligini belgilaydigan kommunikativ kategoriya sifatida o‘rganish imkoni yuzaga keldi.

Bugungi kunda tadqiqotchilar orasida «xushmuomalalik» tushunchasini ta’riflashda ko‘plab yondashuvlar mavjud. Xushmuomalalik tilshunoslik fanining predmeti sifatida bir necha bor mahalliy va xorijiy tilshunoslar e’tiborini tortgan. U til hodisasi sifatida “odob” normasini ishlab chiqish, xulq-atvor odobining shakl va funksiyalarini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganish, xushmuomalalik kategoriyasi hamda uning turlari o‘rtasidagi munosabatni o‘rnatish kabi masalalarni o‘rtaga tashlaydi.

Tilshunoslikka oid ko‘plab ensiklopedik lug‘atlarda xushmuomalalik terminiga keng va tor tarzda izoh berilgan [15].

O‘zbekona muloqot suhbatlashuvchilardan xushmuomalalikni talab qiladi. Bu jarayon suhbat egalarining mansabi, yoshi va jinsiga qarab hurmatning turli darajasi orqali amalga oshiriladi. O‘tgan asrning 40-60 yillaridan boshlab til universaliyalari masalasi lingvistikaning kun tartibiga qo‘yila boshladi. Tilshunos olimlar xushmuomalalik kategoriyasining ifoda vositalari ham gonorefik maqsadlar uchun ishlatiladi [20], degan fikrdalar. Bir tomondan bu to‘g‘ri, xushmuomalalik bilan insonni sharaflovchi til omillarining o‘rtasida keskin farq yo‘q. Xushmuomalalik, avvalo “*Assalomu alaykum”*dan boshlanadi.

Lug‘atlar ta’rifiga ko‘ra, “xushmuomalalik” – birovga yaxshi muomalada bo‘lishni anglatadi [28]. Uning ziddiyatlari qo‘pollik va madaniyatsizlikdir [13].

Ingliz olimi T.Holtgraves xushmuomalalikni faqat xatti-harakatlarimizni belgilovchi qoidalar majmuasi sifatida emas, balki antropologiya, tilshunoslik, sotsiolingvistika, kognitiv psixologiya, pragmatika va boshqa ilmiy tadqiqot sohalarini qamrab oluvchi keng tushuncha sifatida ta’riflaydi [1]. Bu, “xushmuomalalik” tushunchasining qayd etilgan yo‘nalishlarda turlicha talqin qilinishini ko‘rsatadi.

Quyidagi matnlarga e’tibor qilsak:

(cc) BY

- Одами ким, танидингизми? - Танидим, тақсир, - деди қўрбоши мағрур бир оҳангда. Юсуфбек ҳожининг ўғли ва ўзимизнинг Марғилондан ҳам яна бир неча бузуқилар. - Юсуфбек ҳожининг ўғли? - Тақсир ... исми Отабек.

*- Мирзакарим билан қандай алоқаси бор эмиш? - Баракалла, тақсир, - деди қўрбоши. - Отабекнинг Марғилондан топқан энг яқин кишиси шу Қутидордир [*Қодирий А. Ўтган кунлар*].*

Ushbu misoldagi “taqsir” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, qadimda amaldorlar va boylarga nisbatan hurmat-ehtirom ma’nosida qo‘llanilgan . O‘zbek tilida ifodalangan bu ma’noni ingliz tilida ko‘p qo‘llanadigan “*sir”* so‘zi to‘laqonli ifodalay olishini quyidagi misolda ko‘rishimiz mumkin.

*“Your Majesty,” he said turning to the Tsar and bowing low before him, cap in hand. And then he began singing: Stephan the Grand, The Master-Hand, My worthy Prince, Shortly, that is, before long, Will come along! “At last!” the Tsar cried happily. “Where did you tarry so long, honourable sir?” “Beg your pardon, Your Majesty,” he said with extreme civility, “you promised to give your daughter in marriage to the man who’d be able to please her with the shoes. My master has lived up to this condition.” “No, Your Gracious Majesty, no!” Stephan said in a determined tone. “I have been a shoemaker, a shoemaker I will remain…” “Perhaps, you will stay at my court,” the Tsar urged . “I’ll let you have half of my palace…nay half of my kingdom!”. “Excuse me, Your Majesty, but the air here is nothing like the air in the country”. “I’ll follow my lord and master,” the Princess replied [*Volsky A.V. Stepan the grand, the master-hand*].*

Demak, muloqot paytida so‘zlar asl ma’nolaridan tashqari yana pragmatik ma’no kasb etadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, xushmuomalalik - bu ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, suhbatdoshning kommunikativ ehtiyojlarini qondiradigan va muloqot qilish normalariga rioya qilishni ta'minlaydigan madaniy o'ziga xos muloqot uslublarini qo'llashdir. Xushmuomalalik kategoriyasi kommunikativ kategoriya sifatida uyg'un, ziddiyatsiz muloqotga erishish va bu maqsadga erishish uchun eng mos nutq vositalarini tanlashni aniqlashga qaratilgan milliy o'ziga xos kommunikativ strategiyalar tizimidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Holtgraves T.M. Language as Social Action: Social Psychology and language use. - Mahwah: Lawrence Erlbaum Associates, 2008. - P.38.

2. Анисимов С.Ф. Введение в аксиологию. Учебное пособие для изучающих философию. -Москва, 2001.

3. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. - М.: Наука, 1988. - 341 с.

(cc) BY

4. Байрамова Л.К. Аксиологический вектор фразеологизмов. Русская сопоставительная филология. -Казань, Казан. гос. ун-т, 2009. - С. 27-30

5. Багаутдинова Г.А. Человек во фразеологии: антропоцентрический и аксиологический аспекты. Автореф. дисс... док. филол. наук. - Казань,2007. - 46 с.

6. Барышков В.П. Аксиология: учебное пособие. - Саратов: Наука, 2009. - 65 с.

7. Гибатова Г.Ф. Аксиология в языке // Вестник ОГУ 2011. - №2. - (121) /февраль. - С.127-132

8. Ғуломқодирова Х.У. Аксиологик ёндашувнинг бугунги кундаги долзарблиги ва оммалаштиришнинг зарурати // “Talqin va tadqiqotlar” respublika ilmiy-uslubiy jurnali. - №8. - Б.58-61. https://doi.org/10.5281/zenodo.7295158

9. Ивин А. А. Современная аксиология: некоторые актуальные проблемы // Философский журнал, 2010. - №1(4). - С. 66-78

10. Ивин А.А. Аксиология. Научное издание. - Москва: Высшая школа, 2006. - 390 с.

11. Каджаспирова Г.М. Педагогик луғат. - М., 2000.

12. Кирьякова А.В. Теория ценностей - методологический базис аксиологии образования // Аксиология и инноватика образования, 2010. - №1. - С.3.

13. Колесников Н.П. Словарь антонимов русского языка. - Тбилиси: Издательство Тбилисского университета, 1972. - С. 54.

14. Комилова Г.Р. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. - Тошкент, 2022. -167 б.

15. Костомаров В.Г. Русский речевой этикет // Русский язык за рубежом, 1967. - №1. - С.56-62.

16. Кузнецова Е. Художественная аксиология в романе Ф.М.Достоевского «Идиот». Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Магнитогорск, 2009. - 24 с. 17. Мельничук В.А. Аксиологическая динамика русской лексики (конец XVIII - начало XXI в.). Дисс. канд. филол. наук. СПб, 2017. - 216 с.

18. Қамбаров Ғ.С. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида). Филол. фан. номз. … дисс. автореф. - Т., 2008. - 26 б.

19. Маджидова Р.У. Антропоцентрик мақолларнинг аксиологик тадқиқи (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида): Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. - Фарғона, 2020. - 76 б.

20. Маткаримова А.И. “Ҳурмат” семантик майдонини ташкил этувчи тил воситаларининг лингвопрагматик ва лингвокультурологик хусусиятлари.

(cc) BY

филология фанлар бўйича фалсафа докторлик диссертацияси. - Андижон, 2021. - 147 бет.

21. Павлов С.Г. Лингвоаксиологическая модель человека: научно-методический аспект // Вестник Минского университета. - Минск, 2013. - С.56

22. Пардаев З. Баҳо категорияси ва унинг фанлараро муносабати. Р.Қўнғуровнинг илмий мероси ва ўзбек тилшунослиги масалалари. - Самарқанд, 2008. - Б.77-84

23. Разбегаева Л.П. Аксиологическая среда в гуманитарном образовании / Л. П. Разбегаева// Известия ВГПУ-2005. - № 1(10)

24. Рахматова М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) ... дисс. - Бухоро, 2019. -189 б.

25. Санаева И.В. Аксиологический аспект языковой картины мира в романе Л.Н.Толстого «Война и мир» (дихотомия «добро - зло»). Автореф.дисс…канд. филол. наук. - Калининград, 2007. - 23 с.

26. Словарь философских терминов / Науч. ред. В.Г. Кузнецов. - Москва: ИНФА-М, 2007. - С. 4-6.

27. Ўзбек миллий энциклопедияси. А ҳарфи. - Тошкент: Давлат илмий нашриёти. - Б.271.

28. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 432 б.

29. Фирсова Е.А. Аксиологическая образовательная среда и исследовательская культура старшеклассников. Текст: непосредственный // Проблемы и перспективы развития образования: материалы IV Междунар. науч. конф. (г. Пермь, июль 2013 г.). - Т. 0. - Пермь: Меркурий, 2013. - С.17-21. - URL: https://moluch.ru/conf/ped/archive/72/4085/ (дата обращения: 01.03.2023).

(cc) BY